



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



No 7  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga  
ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 102 sahifa,  
1-iyul, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'aurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjayev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Umarova H. O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan*

*Qirg'izboev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiiev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024-yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko'ra, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiysi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

# MUNDARIJA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodi bilimlarini shakllantirish.....	16
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni .....	20
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati .....	23
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari .....	27
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'lifi o'yinlarning ahamiyati .	31
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar .....	34
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'naliishi ta'lifida muloqotning ahamiyati.....	37
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'lifi va raqamli texnologiyalar .....	41
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ....	44
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lif yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	48
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi .....	53
Isayeva Mushtari Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons .....	56
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish .....	60
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar assosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish:	
bosqichlar va tamoyillar .....	65
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories .....	68
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction:	
a Review of Recent Literature .....	73
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibrid ta'lif sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga	
qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	78
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi	
(9-sinflar uchun "metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida) .....	81
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning .....	85
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной	
письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода .....	88
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lif muassasalari	
raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari .....	93
Jonibekov Jasur Jonibekovich	
O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	98
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	



## “UZLUKSIZ MA’NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASI”DA IJTIMOIYPEDAGOGIK HAMKORLIKNING O’RNI

Abirova Umida Nazarovna

Oriyental universiteti Uzluksiz ta’lim pedagogikasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”ni amalga oshirish bosqichlari tahlil qilingan. O’zbekiston yoshlar tarbiyasini yangilangan milliy g’oya asosida, ilmiy-tehnologik yondashuvlar bilan uyg’unlashtirilgan holda isloh qilish zarurligi asoslab berilgan. Jumladan, tarbiya sohasida eskirgan, mavhum va natijasiz yondashuvlardan voz kechib, uni bugungi ijtimoiy ehtiyojlarga mos, aniq va samarali kompetensiyalar, axloqiy fazilatlar asosida tashkil etish zarurligi ta’kidlangan. Shuningdek, Konsepsiya doirasida oila, mahalla va ta’lim muassasalari o’tasidagi ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni takomillashtirish yo’llari yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** shaxs, ta’lim, tarbiya, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”, oila, mahalla, ta’lim muassasasi, ijtimoiy muhit, ma’naviyat, ma’rifat, hamkorlik, faoliyat, qobiliyat, intizom, jasorat.

**Abstract:** This article analyzes the stages of implementing the “Concept of Continuous Spiritual Education”. It substantiates the necessity of reforming the youth education system in Uzbekistan based on a renewed national ideology and a scientific-technological approach. The paper emphasizes the transition from outdated, vague, and ineffective methods to clear, competence-based strategies aligned with current societal demands. Additionally, the article highlights ways to improve the social-pedagogical cooperation among families, local communities (mahalla), and educational institutions within the framework of the Concept.

**Key words:** personality, education, upbringing, “Concept of Continuous Spiritual Education”, family, mahalla, educational institution, society, spirituality, enlightenment, cooperation, activity, ability, discipline, courage.

**Аннотация:** В статье рассматриваются этапы реализации “Концепции непрерывного духовно-нравственного воспитания”. Обоснована необходимость реформирования системы воспитания молодежи в Узбекистане на основе обновлённой национальной идеи и современных научно-технологических подходов. Подчёркивается отказ от устаревших, неопределённых и малорезультативных методов в пользу чётких, ориентированных на современные требования, компетентностных и нравственных подходов. Особое внимание уделяется совершенствованию социально-педагогического взаимодействия семьи, махалли и образовательных учреждений в рамках реализации Концепции.

**Ключевые слова:** личность, образование, воспитание, “Концепция непрерывного духовного воспитания”, семья, махалля, образовательное учреждение, социум, духовность, просвещение, сотрудничество, деятельность, способности, дисциплина, мужество.

### KIRISH

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli qarorida 1 uzluksiz ma’naviy tarbiya:

- davlat ta’lim standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalari;
- ta’lim sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;
- davlat boshqaruvi organlari, jamoatchilik tashkilotlari, mahalla va oila institutlari orqali joriy etilishi belgilab qo’yligan.

Qarorga muvofiq, Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi quyidagi to’rt bosqichni qamrab oladi:

- Birinchi bosqich – oilalarda:
  - 1-davr – homila davr;
  - 2-davr – bola tug’ilganidan 3 yoshgacha bo’lgan davr;



- Ikkinchisi bosqich – maktabgacha ta'lif (3–6 (7) yoshgacha bo'lgan davr);
  - Uchinchi bosqich – umumiyoq o'rta ta'lif tizimida (ikki davr):
    - 1-davr – 6 (7)–10 yoshgacha bo'lgan boshlang'ich sinf davri;
    - 2-davr – 11–17 yoshgacha bo'lgan o'rta va yuqori sinflar;
  - To'rtinchi bosqich – ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'limgagan yoshlar, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar hamda oliy ta'lif muassasalarini tizimida (ikki davr):
    - 1-davr – o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lif bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat yuritayotgan va band bo'limgagan yoshlar (17–30 yosh).
    - 2-davr – o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lif muassasalarining o'quvchi-talabalari (15–22 (24) yosh).
- Ko'rinish turibdiki, ushbu Konsepsiya yuqorida sanab o'tilgan hamkorlarning tizimli va ilmiy asoslangan ijtimoiy-pedagogik hamkorligiga tayanishi zarur.
- Yangi O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini yangilangan milliy g'oya asosida, milliy-zamonaviy va ilmiy-texnologik yondashuvlar asosida isloq qilish; tarbiya sohasida eskirgan, umumiyoq, mavhum va natijasiz yondashuvlardan voz kechib, uni aniq, bugungi kun talablariga mos, tayanch kompetensiyalar va axloqiy fazilatlar asosida shakllantirish dolzarb vazifa sifatida qo'yilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogika fanlari doktori, professor M. Quronov ilmiy rahbarligidagi ishchi guruh tomonidan "Uzluksiz ma'nnaviy tarbiya konsepsiysi" ishlab chiqilgan. Mazkur konsepsiyaning eksperimental sinovlari Toshkent shahri, Namangan va Samarqand viloyatlarining tuman va shaharlarida amalga oshirilgan. 2019-yil 31-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

1059-sonli "Uzluksiz ma'nnaviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>1</sup> qarori<sup>1</sup> qabul qilingan.

Tadqiqotimizning mazkur moddasida biz yuqorida ko'rsatilgan huquqiy-me'yoriy, ilmiy-uslubiy hamda konseptual asoslarga tayandik. Ya'ni, kollejlarda amalga oshiriladigan ma'nnaviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda, mahalla va oila hamkorligi quydagi tamoyillarga asoslanadi:

- hamkorlik jarayoni ishtirokchilarining harakatlardagi ish birligi;
- tarbiyalanuvchiga nisbatan hurmat va talab uyg'unligi;
- hamkorlik subyektlarining teng huquqliligi va yuksak mas'uliysi;
- faoliyat davomida millat va davlat manfaatlarining ustuvorligi;
- hamkorlikning ilmiy asoslanganligi.

Konsepsiada mahalla, maktab va oilalarning tarbiyaviy hamkorligi quydagilarga qaratilganligi ko'zda tutilgan: bolalarning jismoniy, ma'nnaviy va ijtimoiy shakllanishini ta'minlash; ularning ilk iqtidori, qiziqishi va aqliy imkoniyatlarini aniqlash; o'z xatti-harakatlariga nisbatan mas'uliyat hissini tarbiyalash; bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilishni o'rgatish; atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish; shuningdek, do'stlik, baynalmilallik, vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish.

Biz uchun ushbu konsepsiyaning ma'nnaviy-ma'rifiy jihatni hamda o'quvchilarda ma'nnaviy madaniyatni tarbiyalashdagi o'rni birlamchi ahamiyat kasb etadi. Konsepsiyaning ushbu nuqtayi nazardan tahlil qilgan holda, mahalla, maktab va oila o'rtasidagi ma'nnaviy-ma'rifiy hamkorlik predmeti aniqlandi.

Mazkur masalaga pedagogik yondashuv, oilaning mакtab bilan ma'nnaviy-ma'rifiy hamkorligini yanada mustahkamlashni taqozo etadi. Buning uchun, eng avvalo, Sharq, o'zbek mahallalari va oilalarida kechayotgan tarbiyaviy munosabatlarni qiyosiy tahlil qilish zarur.

Faylasuf olima M. Xolmatova oila va mahallani odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy-ma'nnaviy munosabatlariga asoslangan birlik deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, ma'nnaviy munosabatlar deganda qo'shnilar, er-xotin, ota-onasi va bolalar o'rtasidagi mehr-muhabbat, mehr-shafqat, mehr-oqibat, odob-axloq, ta'lif-tarbiya kabi insoniy tuyg'ular va talablar tushuniladi.

Olima insoniyatning uchinchi ming yilligida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lganini va bu o'zgarishlarning oilaga sezilarli ta'sir ko'rsatganini alohida ta'kidlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasida "Uzluksiz ma'nnaviy tarbiya konsepsiysi" asosida yoshlarda ijtimoiy kompetensiyalarni takomillashtirishda kuzatish va ko'rsatish, savol-javob, og'zaki bayon, anketa so'rovi hamda zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanildi.

Ijtimoiy pedagogika – har bir o'smirda kelajakka ishonch, madad, kuch-g'ayratni rivojlantiradi. U xalqimizni Vatan, millat, mustaqillik himoyasi yo'lida birlashtiradi, bunyodkor ishlarga safarbar etadi. Shu bois, O'zbekis-

<sup>1</sup> <https://www.lex.uz/uz/docs/-4676839>

ton xalqini ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotga eltuvchi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi"ni amalga oshirish, milliy g'oyamizni barchaning e'tiqodiga aylantirish, uni kelajagimiz bo'lgan yoshlar ongiga singdirish – bizning eng muhim pedagogik burchimizdir.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'llini belgilovchi Harakatlar strategiyasini amalga oshirish, o'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad va muddaolarini ro'yobga chiqarish, milliy g'oyamizni har bir O'zbekistonlikning mustahkam e'tiqodiga aylantirish, uni mehnatda, ijodda, kishilar bilan o'zaro munosabatlarda ustuvor tarzda namoyon etishga erishish – bizning pirovard maqsadimizdir.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga, ayniqsa, qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratib, quydagicha qat'iy vazifa belgilaganlar:

"Oilalarda tibbiy va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlarini bitirib chiqayotgan yoshlarimizni, avvalo, qiz bolalarni ish bilan ta'minlash davlat idoralarining birinchi galdeg'i vazifasi bo'lishi shart."

Darhaqiqat, o'zbek mahallalarida tarbiya o'zining murakkab va boy ma'naviy tizimiga ega ekanligi barchamizga ma'lum. Bu tarbiya jarayonida gender tamoyili, ya'nı jinsiy xususiyatlarni inobatga olish ham yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, o'g'il bolaga bo'lajak uy egasi, urug'-avlod davomchisi va merosxo'r sifatida qaralgan bo'lsa, qiz bolaga esa yigitning yo'ldoshi, bo'lajak ona va uy bekasi sifatida yondashilgan

O'g'il bolalar tarbiyasida esa bosqichma-bosqich xususiyatlar kuzatiladi:

- 1–6 yoshgacha – bola hokim, ota esa tobe;
- 7–17 yoshda – ota hokim, o'g'il esa tobe;
- 18 yoshdan so'ng – ota bolaga do'st va hamkor bo'lishi kerak, deb ta'kidlash mumkin.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysini amalga oshirish dasturining 49-bandida "O'g'il bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g'oya sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik, halollik, rostgo'ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, vazminlik, yigitlik g'ururi, or-nomus, mehr-oqibatilik kabi fazilatlar, shuningdek, tadbirkorlik va oilaparvarlik malakalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish" keltirib o'tilgan.

Dasturning 50-bandida esa "Qiz bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g'oya sadoqat, mehnatsevarlik, jonkuyarlik, oilaparvarlik, ibo, hayo, nafosat, did-farosat, qanoat, vafodorlik, mehribonlik, rahmdillik, kamtarlik, ziyraklik, mehmondo'stlik, bolajonlik, murosalilik, orastalik, sarajomlik, xushmuomalalik, pazandalik malakalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish" belgilangan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi"ning mazmun-mohiyatini oila, ta'lim muassasasi va mahalla mas'ullarining ongiga singdirish, ta'lim-tarbiyaning turli uslub, vosita va shakllari orqali amalga oshirilishi shart. Ana shu vositalar orqali yoshlarga to'g'ri yashashni, salbiy illatlarga murosasiz bo'lishni, erkin fikrlashni va tayanch ijtimoiy kompetensiyalarni o'rgatish zarur.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysining har bir bosqichini uzviylik va izchillik bilan amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning uzluksizligini ta'minlashda, ushbu konsepsiya asoslangan holda o'quvchilar ongiga milliy g'oya va ma'naviy fazilatlarni singdirish jarayonini muntazam va tizimli tarzda olib borish yuqori samaradorlikka erishishni ta'minlaydi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2017. 23-dekabr. № 258 (6952). – B. 5.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 1059-tonli qaror: "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" // Qonunchilik hujjatlari. – 2019. 31-dekabr.
3. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. – Toshkent: "Sharq", 1998. – 320 b. – B. 115.
4. Inomova M.O. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dokt. diss. – Toshkent, 1998. – 34 b.
5. Umarov H., Haydarov Q., Xoliqov M. Xalq rasm-rusumlari. – Samarqand: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti bo'limi, 1991. – 8 b.
6. Alimov U. Fazilatlari avlod. – Toshkent: "Muharrir", 2019. – 42 b.
7. Quranbayev Q.Q. Talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faoliyklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent, 2000. – 4 b.
8. Mavrushev A. Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2008. – B. 11–12.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
  - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
  - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03** Maxsus pedagogika
  - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07** Ta'limda menejment
  - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00** Tarix fanlari
  - 19.00.00** Psixologiya fanlari
  - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00** Kimyo fanlari
  - 03.00.00** Biologiya fanlari
  - 09.00.00** Falsafa fanlari
  - 10.00.00** Filologiya fanlari
  - 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.